



XORAZM VILOYATI  
STATISTIKA BOSHQARMASI

2022- YILDA XORAZM VILOYATIDA  
TURIZM  
VA DAM OLISH RIVOJLANISHINING  
ASOSIY KO'RSATKICHLARI



## Xorazm viloyatida turizm va dam olish rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari

Turizm xalqaro xizmatlar bozori tarkibidagi muhim tarmoqlardan biri bo'lib, buning natijasida XXI asrning boshida (bir qator tabiiy ofatlar, global inqiroz va siyosiy mojarolarning keskinlashuviga qaramay) iqtisodiy samaradorlik bo'yicha dunyoda birinchi o'rinni egallagan bo'lib neft ishlab chiqarish va avtomobilsozlik kabi muhim tarmoqlarni ortda qoldirgan.


Biroq, turizm nafaqat iqtisodiy rivojlanishning kuchli vositasi, shuningdek, u muayyan hudud qiyofasini yaratish, kelajak yutuqlari va tarixini targ'ib etishda ham samarali omil bo'lib xizmat qiladi. Turizm mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishiga eng katta ta'sir ko'rsatadi. Turli davlatning turistik va rekreatsion salohiyati juda murakkab tushuncha bo'lib, bir ma'noda talqin qilish va baholash qiyin. Bu ko'p jihatdan turistik salohiyatning asosini, har bir alohida davlatning kelib chiqishi va mohiyatiga ko'ra har xil bo'lgan madaniy, tabiiy va tarixiy meros obyektlari tashkil etishiga bog'liq. Shu bilan birga, siyosiy, iqtisodiy, huquqiy, madaniy, ijtimoiy va psixologik xususiyatga ega bo'lgan bir qancha tashqi omillar turistik yo'nalishning jozibadorlik darajasining yakuniy ko'rsatkichlariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Hozirgi vaqtda dunyoda turizmning roli doimiy ravishda o'sib bormoqda, bu turizmning odamlar hayotidagi roliga, shuningdek, butun mamlakatlar iqtisodiyotiga ta'siri kuchayishi bilan bog'liq. Turizmdagi xizmatlarning aksariyati eng kam yo'qotishlar bilan amalga oshiriladi, turizm jahon iqtisodiyotiga tobora ko'proq ta'sir qilmoqda ularning barchasi turizmning o'ziga xos belgisidir. Faoliyatning turizm sektori qo'shilgan qiymatning eng yuqori ko'rsatkichiga erishishga imkon beradi. Hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida sayyohlik kompaniyalari yangi xizmatlar va mahsulotlarni ishlab chiqish muhimligi va zarurligini tobora ko'proq anglab yetmoqda.





## 2022- yilda turistik firma va tashkilotlar faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari


Turistik firma va tashkilotlari shahar va tumanlar kesimida, birl.



2022- yilda qabul qilinganlar soni, ming kishi




2022- yilda jo'natilganlar soni, ming kishi




3




## 2022- yilda turistik firma va tashkilotlar faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari



### Sotilgan sayyohlik yo'llanmalar shahar va tumanlar kesimida, birlik



### Turistik firma va tashkilotlar xodimlari, kishi




## 2022- yilda mehmonxonalar va shunga o'xshash turar joy obyektlari faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari

2022- yil davomida Xorazm viloyatida 79 ta mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish obyektlari faoliyat ko'rsatgan bo'lib, ulardan 98,7 % i mehmonxonalar, 1,3 % motellarga to'g'ri keladi.

### Mehmonxonalar va shunga o'xshash obyektlar, birlik



### Mehmonxonalar va shunga o'xshash obyektlar shahar va tumanlar kesimida, birlik




### Yulduzlar toifasi bo'yicha mehmonxonalar, birlik toifaga ega bo'lmaganlar



**Xonalar** 1,9 ming nomerlar  
3,6 ming o'rinlar


**Tunab qolishlar soni** 195,8 ming birlik



## 2022- yilda mehmonxonalar va shunga o'xshash joylashtirish muassasalarda shaxslarni joylashtirish

2022- yil davomida mehmonxonalar va shunga o'xshash joylashtirish muassasalarga **112,5** ming kishi joylashtirildi, ulardan **62,7 %** i O'zbekiston fuqarolari, **8,7 %** MDH ga a'zo davlatlar fuqarolari va **28,6 %** i xorijiy davlatlar fuqarolari bo'ldi.


### Joylashtirilgan shaxslar soni



- O'zbekiston fuqarolari **70,5** ming kishi
- MDH mamlakatlari fuqarolari **9,7** ming kishi
- xorijiy davlatlar fuqarolari **32,2** ming kishi

2022- yilda mehmonxonalar va shunga o'xshash turar joylarga joylashtirishirilgan shaxslardan **10,6** ming kishi ish yuzasidan va kasbga oid maqsadida, **83,3** ming kishi ta'vil, bo'sh vaqt va dam olish maqsadida, **3,2** ming nafari do'stlar va qarindoshlardan xabar olish maqsadida, **2,2** nafari ta'lim va kasbiy tayyorgarlik maqsadida, **9,0** ming nafari ziyoratgohlarga tashrif maqsadlarida kelgan.

### Sayohat maqsadi kelgan shaxslarni joylashtirish, ming kishi



**ta'vil, bo'sh vaqt va dam olish**



**do'stlar va qarindoshlardan xabar olish**



**ziyosatgohlarga tashriflar**



**ta'lim va kasbiy tayyorgarlik**



**do'konlarga tashriflar**



**tranzit**



**boshqa shaxsiy maqsadlar**



**ish yuzasidan va kasbga oid maqsadlar**





6




## 2022- yilda ixtisoslashtirilgan joylashtirish muassasalari obyektlari faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari

2022- yilda ixtisoslashtirilgan joylashtirish muassasalari obyektlari soni **24** tani tashkil etib, shundan **20,8 %** i Urganch shahrida, **16,7 %** Gurlan va Xonqa tumanida faoliyat yuritmoqda. Ixtisoslashtirilgan muassasalar turlari bo'yicha sanatoriya - profilaktoriya **1** ta, katta yoshlilar uchun sanatoriya **5** ta, bolalar uchun sanatoriyalar **2** ta va **15** ta boshqa ixtisoslashtirilgan joylashtirish muassasalaridan tashkil topgan.


### Ixtisoslashtirilgan joylashtirish muassasalari Shahar va tumanlar kesimida, birlik



### Turlari bo'yicha ixtisoslashtirilgan joylashtirish muassasalari binolari, birlik



### Xonalar, ming birlik




7



## 2022- yilda shaxslarni ixtisoslashtirilgan joylashtirish muassasalariga joylashtirish faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari


2022- yil davomida 21,7 ming kishi ixtisoslashtirilgan joylashtirish muassasalariga joylashtirildi, ulardan 99,9 % i O'zbekiston fuqarolari, 0,1 % MDH ga a'zo davlatlar fuqarolari bo'ldi.

### Joylashtirilgan shaxslar soni



Ixtisoslashtirilgan joylashtirish muassasalariga joylashtirilgan shaxslardan 17,0 ming kishi davolovchi va sog'lomlashtiruvchi muolajalar maqsadida, 4,8 ming kishi ta'til, bo'sh vaqt va dam olish maqsadida kelgan.

### Sayohat maqsadida kelgan shaxslarni joylashtirish, ming kishi





## 2022- yilda individual joylashtirish muassasalari obyektlari faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari

2022- yil davomida Xorazm viloyatida **49** ta individual joylashtirish muassasalari obyektlari faoliyat ko'rsatgan bo'lib, ulardan **100,0 %** i mehmon uylari ulushiga to'g'ri keldi.

### Individual joylashtirish muassasalari, birlik





### Xonalar

195 xonalar birlik  
460 joylar birlik

Tunab qolishlar **9023** birl.

### Individual joylashtirish muassasalari shahar va tumanlar kesimida, birlik



\*yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan dala hovlilar


Xorazm viloyatida 2022- yilda eng ko'p individual turar joylar Xiva shahrida (**42** ta) va Urganch shahrida (**5** ta) faoliyat ko'rsatmoqda.



## 2022- yilda shaxslarni individual turar joylarga joylashtirish faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari


2022- yil davomida individual turar joylarga 4,4 ming kishi joylashtirildi, ulardan 49,0 % i O'zbekiston fuqarolari, 26,4 % xorijiy davlatlar fuqarolari va 24,6 % MDH ga a'zo davlatlar fuqarolari bo'ldi.

### Joylashtirilgan shaxslar soni



Individual turar joylarga joylashtirilgan shaxslardan 3 141 kishi ta'til, bo'sh vaqt va dam olish maqsadida, 289 nafari do'stlari va qarindoshlarini ziyorat qilish, 332 nafari ish va kasbiy maqsadlarda, 25 nafari ta'lim va kasbiy tayyorgarlik maqsadida kelganlar.


### Sayohat maqsadida kelgan shaxslarni joylashtirish, kishi




## 2022- yilda boshqa joylashtirish muassasalari faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari

2022- yilda boshqa joylashtirish obyektlari soni 7 tani tashkil etdi, shundan 71,4 % i Urganch shahrida va 28,6 % Xiva shahrida faoliyat ko'rsatmoqda.


### Boshqa joylashtirish vositalar shahar va tumanlar kesimida, birl.



### Boshqa joylashtirish vositalari, birl.



xonalar:




11



## 2022- yilda boshqa turar joylarga shaxslarni joylashtirish faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari

2022- yil davomida 645 kishi boshqa turar joylarga joylashtirildi, ulardan 77,4 % i O'zbekiston fuqarolari, 15,8 % MDHga a'zo davlatlar fuqarolari va 6,8 % xorijiy davlatlar fuqarolari bo'ldi.

### Joylashtirilgan shaxslar soni



Boshqa turar joylarga joylashtirilgan shaxslardan **356** nafari ish yuzasidan va kasbga oid maqsadida, **191** nafari ta'til, bo'sh vaqt va dam olish maqsadida, **20** kishi diniy joylar va ziyoratgohlarga tashrif maqsadida va **78** nafar boshqa shaxsiy maqsadlarda kelgan.

### Sayohat maqsadida kelgan shaxslarni joylashtirish, kishi



ta'til, bo'sh vaqt va dam olish



diniy joylarga va ziyoratgohlarga tashrif



boshqa shaxsiy maqsadlar



ish yuzasidan va kasbga oid maqsadlar



## Statistikaga oid eslatmalar

**Turizm** – jismoniy shaxsning doimiy yashash joyidan, vaqtinchalik yashash joyidan (joyidagi) manbalardan daromad olish bilan bog‘liq faoliyat bilan shug‘ullanmasdan chiqib ketishi (sayohat qilishi).

**Turist** – vaqtinchalik yashash uchun biron bir mamlakatga (joyiga) yigirma to‘rt soatdan o‘n ikki oygacha bo‘lgan muddatda vaqtinchalik yashash uchun, daromad olish bilan bog‘liq faoliyat bilan shug‘ullanmasdan, yoki kamida ma‘lum bir muddatga vaqtincha yashash uchun borgan jismoniy shaxs.

Kirish turizmi kiruvchi sayyohlik safari davomida ushbu mamlakatdagi norezident mehmonning faoliyatini o‘z ichiga oladi.

Chiqish turizmi ko‘rilayotgan mamlakatdan tashqarida doimiy yashovchi mehmonning chiqish yoki ichki turistik sayohati doirasidagi faoliyatini o‘z ichiga oladi.

**Mehmon (ziyoratchi)** – boshqa davlatga o‘z kasbiy faoliyatidan daromad olishdan boshqa maqsadni ko‘zlab kelgan shaxs.

Do‘stlar va qarindoshlarni ziyorat qilish – ushbu turkumga qarindoshlar yoki do‘stlarni ziyorat qilish kabi faoliyatlar kiradi; to‘ylarda, dafn marosimlarida yoki boshqa oilaviy tadbirlarda qatnashish; kasal yoki qariyalarga qisqa muddatli g‘amxo‘rlik va boshqalar.

**Ta‘lim va kasbiy tayyorgarlik** – ushbu toifaga ish beruvchilar yoki boshqa tashkilotlar/shaxslar tomonidan to‘lanadigan qisqa muddatli kurslarda qatnashish, maxsus o‘quv dasturlarini tamomlash yoki kurslarda ma‘lum ko‘nikmalarga ega bo‘lish, jumladan, pullik o‘qish, til o‘rganish, kasbiy yoki boshqa maxsus kurslar, ta‘tillar va hokazolar kiradi.

**Davolanish va sog‘lomashtirish muolajalari** – Ushbu toifaga shifoxonalardan, poliklinikalardan, sanatoriyalardan va tibbiy-ijtimoiy muassasalardan keyingi tibbiy yordam ko‘rsatish xizmatlarini olish, dengizga va boshqa kurortlarga tashrif buyurish, shuningdek, tibbiy maslahat asosida tibbiy yordam olish uchun boshqa ixtisoslashtirilgan muassasalar kiradi. Tibbiy asbob-uskunalar va xizmatlardan foydalangan holda kosmetik jarrohlik.

**Ishga doir va kasbiy maqsadlar** – ushbu toifaga yakka tartibdagi tadbirkorlar va xodimlarning faoliyati, agar ularda mamlakatda yoki tashrif buyurilgan joyda rezident ishlab chiqaruvchi bilan aniq yoki nazarda tutilgan mehnat munosabatlari belgilari bo‘lmasa, shuningdek investorlar, tadbirkorlar va boshqalar faoliyati kiradi.



**Press-relizlarni tayyorlash uchun mas'ul :  
Ijtimoiy soha statistikasi bo'limi**



Xorazm viloyati statistika  
boshqarmasi



e-mail: [xorazmstat@umail.uz](mailto:xorazmstat@umail.uz)



[www.xorazmstat.uz](http://www.xorazmstat.uz)



[facebook.com/xorazmstataxborot](https://facebook.com/xorazmstataxborot)



Manzil: Urganch sh.  
Al-Xorazmiy ko'chasi, 93-uy



Tel: +99862 224-65-21